Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319618

materiallar to'plami

AHOLI TURMUSH DARAJASINI STATISTIK O'RGANISHNING AXAMIYATI

Turg'unov Tursunboy Sabirovich, "Avtomobilsozlik" fakulteti dekani iqtisodiyot fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) Andijon mashinasozlik institute, Andijon shahri, O'zbekiston

Sarimsaqov Donyorbek Xomidovich, "Iqtisodiyot" fakulteti dekani iqtisodiyot fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) Andijon mashinasozlik instituti, Andijon shahri, O'zbekiston

Mazkur maqola aholi daromadlarini statistik o'rganishning ahamiyatiga bag'ishlangan bo'lib, ularning turmush darajasiga ta'sir qiluvchi omillarning asosiylari, aholi daromadlari hamda aholi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar haqidagi holatlar ilmiy manbalar asosida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: aholi daromadlari, moddiy va nomoddiy boyliklar, cud-huquq tizimi, agroklaster.

Turgunov Tursunboy Sabirovich. Sarimsaqov Donyorbek Xomidovich.

THE IMPORTANCE OF STATISTICAL STUDY OF THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION.

This article is devoted to the importance of statistical study of income of the population, the main factors influencing their living standards, income of the population and the conditions created for the population are studied on the basis of scientific sources.

Keywords: population income, tangible and intangible wealth, judicial system, agro-cluster.

Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini yaxshilash va kambag'allikdan aziyat chekayotgan davlatlarga ko'maklashish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasida 2000 yilda qabul qilingan «Ming yillik taraqqiyot dasturi» hamda

Published: 10.11.2023

Cite this article: Turg'unov Tursunboy Sabirovich, Sarimsaqov Donyorbek Xomidovich (2023). Aholi turmush darajasini statistik o'rganishning axamiyati. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319618

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

2015 yilda qabul qilingan «2030 yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi» 1 bevosita jahon aholisini ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda aholi salomatligini asrashga qaratilgan muhim ishlar sirasiga kiradi. Odatda, aholi turmush darajasi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar miqdori va yakuniy iste’mol hajmining ortishi yoki kamayishi bilan baholanadi. Ammo “Aholi turmush darajasi sifatini baholovchi ko‘rsatkichlar” tushunchasi ancha kengroq tushuncha hisoblanadi. Shu bois turmush darajasini aholining moddiy va nomoddiy boyliklarga ehtiyojlari darajasi, shuningdek, ushbu ehtiyojlarni qondirish va rivojlantirish uchun jamiyatdagi mavjud sharoitlarni aks ettiradigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida aniqlash mumkin. Ma’lumki aholi turmush darajasiga ta’sir qiluvchi omillarning asosiylari, aholi daromadlari hamda aholi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlardi. Xozirgi kunda mamlakatimiz aholisi turmush darajasi uchun etarli shart-sharoitlar yaratilgan desak xato bo‘lmaydi. Faqat yaratilayotgan shart-sharoitlardan aholining barcha qatlamlari bir meyorda foydalanishi talab darajasida emas. Buning asosiy sabablaridan biri, aholi qatlamlarining daromadlaridagi farqlanishdir. Shuning uchun ham aholi daromadlari va ularning xosil bo‘lish manbaalarini statistik jihatdan o‘rganish va doimiy taxlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. MHT xalqaro standartida aholi turmush darajasi sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblangan aholining umumiy va jon boshiga daromadlari ko‘rsatkichlarini shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. uy xo‘jaliklarining iste’molga qodirligini aniqlash mezoni sifatida foydalaniladigan muhim indikator – umumiy daromadlar (joriy tushumlar) hisoblanadi, chunki ular iste’mol qilish yoki jamg‘arish imkoniyatini oshirishni ta’minlaydi. Xalqaro statistikada umumiy daromad ikkiga – «birlamchi daromad» va «transfertlardan olingan daromadlar»ga bo‘linadi 2. Bu o‘z navbatida bandlik holati yoki ijtimoiy ta’minot tizimiga bog‘liq holda institusional o‘zgarishlarning ta’sirini kuzatish imkonini beradi va o‘z ichiga Birlamchi daromadlar vatransfertlardan olingan daromadlarni oladi2. Shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarga bozor uchun mo‘ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda

hisoblangan qiymati kiradi. Mol-mulkdan olingan daromadlar (mulkiy daromadlar) – mulkiy egalik qilish huquqi bo‘lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berilishidan olingan daromadlarni ifodalaydi. O‘zbekicton Recpublikaci Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekicton ecpublikacini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar ctrategiyaci to‘g‘ricida”gi PF – 4947 conli farmoni davlat va jamiyat hayotining barcha cohalarini rivojlantirishning uctuvor yo‘nalishlarini belgilash va ularni bocqichma-bocqich amalga oshirish maqcadida qabul qilindi. Ushbu uctuvor yo‘nalishlar Harakatlar ctrategiyacida belgilangan bo‘lib, unda davlat va jamiyat qurilishi, cud-huquq tizimi va ijtimoiy-iqticodiy cohadagi iclohotlar hamda tashqi ciyocat yuritishning muhim prinsiplari nazarda tutilgan. Harakatlar ctrategiyaci xalq bilan ochiq muloqot, recpublikamiz aholici va tadbirkorlarni bezovta qilayotgan dolzarb macalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilikni qo‘llash va rivojlangan xorijiy amaliyotni tahlil qilish natijalariga acoclangan. Prezidentimizning Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ta’kidlaganlaridek “Kambag‘allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil-bu insonning intilishi, o‘z kuchiga tayangan holdi, aniq maqsad sayi harakati bo‘lishi kerak”.

Xozirda mamlakatimizda aholini bandligini ta’minlash, aholi daromadlarini oshirish hamda yashash sharoitini yaxshilashga qaratilagan tizimili ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan shaxar va tumanlarda aholi bindligini ta’minlashga ko‘maklashuvchi markazlar o‘z faoliyatini olib bormoqda. Bir co‘z bilan aytganda, davlatimiz rahbari boshchiligida amalga oshirilayotgan barcha harakatlar xalqimizning turmush darajacini yaxshilash, farovonligini oshirishga qaratilgandir. Lekin shuni ham unutmaslik kerakki dunyo aholisi, jumladan mamlakatimiz aholisi ham son jixatdan o‘sib bormoqda. Ushbuni e’tiborga olgan xolda xududlarning gegrafik joylashuvi va axolining extiyojlaridan kelib chiqib agroklasterlarni rivojlantirish, aqliy mehnat markazlari sonini oshirish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarini yanada rivojlantirish dolzarbligini yo‘qotmaydi. Bu esa kelgusi davrlar uchun aniq

ma’lumotlarga tayangan xolda istiqbolli rejalarni shakllantirish va yo‘nalishlarni belgilash muhim ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. BMTning 2015 yilda qabul qilingan «2030 yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi» // [Elektron resurs]. – URL: http://www.un.uz/uzb/pages/display/sdgs

2. Система национальных счетов, 2008 г., Европейская комиссия, ООН, МВФ, ОЭСР, ВБ, Нью Йорк, 2012.

3. BMTning 2015 yilda qabul qilingan «2030 yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi» // [Elektron resurs]. – URL: http://www.un.uz/uzb/pages/display/sdgs

4. www.mehnat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining sayti

5. www.mineconomu.uz- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi sayti